

OILA PSIXOLOGIYASI VA GENDER STEREOTIPLARI: FARZAND TARBIYASI VA IJTIMOY ONGGA TA’SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-386-389>

Sa’dulloeva Mohinur Alisherovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
psixologiya yo’nalishi 1-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: Jabborov Xazrat Xusenovich

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
pedagogika va psixologiya kafedrası professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)*

ANNOTATSIYA

Maqolada gender tenglik, oila psixologiyasi haqida va gender stereotiplarning yuzaga kelishi, ularning farzand tarbiyasiga hamda bolalarni ijtimoiy ongning rivojlanishiga ko’rsatadigan ta’siri ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oilada va jamiyatda bolaning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy rivojlanishi hamda o’z - o’zini anglash jarayoniga, ota-onalarning tarbiyaviy qarashlari, an’anaviy gender rollari va stereotipik yondashuvlarning ta’siri yoritib beriladi. Maqolada ota-onalarning, bola psixologiyasiga ongli va ongsiz ravishta ta’sir ko’rsatadigan, O’zbek mentalitetida uzoq zamonlardan beri saqlanib kelyotgan notog’ri gender stereotip yondashuvlar, bola psixologiyasiga, jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga va bola shaxsini erkin rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadigan stereotiplar misollar bilan ko’rib chiqiladi. Shuningdek hozirgi zamonaviy hayotimizda bola tarbiyasida gender tenglikning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: Gender tenglik, oila psixologiyasi, farzand tarbiyasi, gender rollar, notog’ri stereotiplar, ijtimoiy ong, bola shaxsining rivojlanishi.

АННОТАЦИЯ

В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы гендерного равенства, психологии семьи, а также причины формирования гендерных стереотипов и их влияние на воспитание детей и развитие их социального сознания. Освещается воздействие воспитательных установок родителей, традиционных гендерных ролей и стереотипных подходов на процессы социальной адаптации ребенка в семье и обществе, его личностное развитие и самосознание.

В статье на примерах рассматриваются ошибочные гендерные стереотипы, которые на протяжении длительного времени сохраняются в узбекском менталитете и оказывают сознательное и бессознательное влияние родителей на психологию ребенка, его социальную активность в обществе и свободное развитие личности. Также обосновывается значение гендерного равенства в воспитании детей в условиях современной жизни.

Ключевые слова: гендерное равенство, психология семьи, воспитание детей, гендерные роли, ошибочные гендерные стереотипы, социальное сознание, развитие личности ребенка.

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of gender equality, family psychology, and the emergence of gender stereotypes, as well as their impact on child upbringing and the development of children’s social consciousness. The study highlights the influence of parental educational attitudes, traditional gender roles, and stereotypical approaches on a

child's social adaptation within the family and society, personal development, and self-awareness. The article examines, through illustrative examples, incorrect gender-stereotypical approaches that have been preserved for a long time within the Uzbek mentality and that consciously and unconsciously affect child psychology, social activity in society, and the free development of the child's personality. Furthermore, the importance of gender equality in child upbringing under the conditions of modern life is theoretically substantiated.

Keywords: *gender equality, family psychology, child upbringing, gender roles, incorrect gender stereotypes, social consciousness, child personality development.*

Oila psixologoyasi va oilada gender tengligi hamda farzand tarbiyasi masalalarini tadbiq etishda oila tushunchasining mazmun mohiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero oila bu shaxsning psixologik rivoji ,ijtimoiy rollarni egallashi va gender qarashlarning shakllanishida yetakchi ijtimoiy insitut hisoblanadi.Shuningdek, oila ijtimoiy tabiiy omillar asosida shakllangan , kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lagan shaxslar o'rtasidagi munosabatning birga hayot qurub nasl qoldirish , faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishga sharoit yaratishdir .Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bir erkakning o'zi yohut bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi.

Bugungi kunda oilaning mustahkamligi va farzandlarning psixologik jihatdan sog'lom rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir qator omillar mavjud bo'lib , bulardan bir gender tenglik va gender streotiplardir. Gender streotiplar nafaqat oiladagi rollar taqsimotida balki farzand tarbiyasida , farzandlarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy xulqida ham dolzarb muommo bo'lib kelmoqda .

Oilada gender tenglik er-xotining huquq va majburiyatlarining teng taqsimlanishi ,o'zoro hurmat va qarorlarni birgalikda qabul qilishini anglatadi . Gender streotiplar (erkaka faqt boquvchi, ayol faqat uybekasi) oiladagi sog'lom munosabatlarga , shaxsiy rivojlanishga to'sqinlik qilib nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa albatta farzand tarbiyasiga hamda bolalarning ijtimoiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tenglik taminlangan oilalarda hamkorlik farzandlar tarbiyasida ma'suliyat va ruhiy xotirjamlik yuqori bo'ladi.

Jamiyat uchun tarixan shakllangan gender streotiplarni yengib o'tish albatta oson emas.ammo muammoni anglash , uni tan olish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish orqaliijtimoiy tafakkurda ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Misol tariqasida keltirib o'tadigan bo'lsak , hozirgi kunga qadar saqlanib kelyotgan gender streotiplardan biri bu ayollarning oilada yetakchiligini qabul qilish jamiyatning aksariyat a'zolari uchun har doim ham biroz og'riqli hisoblanadi.

Bu streotipa ko'ra ayollar farzand boqimi bilan mashg'ul bo'lishi , uy ishlarini bajarishi hamda harqanday mavzuda ham eriga so'zsiz itoatda bo'lishi nazarda tutiladi.

-ayol kishi o'ziga oro bergan , tartibli bo'lishi kerak

-ayol kishi bir gapdan qolishi kerak

- ayollar itoatkor bo'ladi
- oilada muhim qarorlarni erkak qabul qiladi
- o'g'il bola yig'lamaydi

Shuningdek kasb tanlash doirasida ham bir necha notog'ri stereotiplarni sanab o'tishimiz mumkin . Qiz bolalarga “ haydovchilik , quruvchilik yoki robotexnika “ sohalari bu erkaklar ishi deyiladi . O'gil bolalarga esa “ tikuvchilik , oshpazlik va bog'cha tarbiyachisi “ kabi kasblar ayollarning ishi deyiladi .

Odatda ayollar ishdan bo'shatish uchun nomzod bo'lishadi va ishga qabul qilishda afzallik erkakka beriladi. Natijada, ayollarning ishsizlik darajasi erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo'ladi. Jamiyat shunday rivojlanmoqdaki, ayollar bir xil ish uchun kamroq maosh olishi, bundan tashqari, ayollarni yuqori maoshli lavozimlardan chetlashtirish sezilarli darajada o'sib boradi.

Gender munosabatlarda aloqa xususiy sohada ham shakllanadi, uning asosini boshqa ijtimoiy institutlar orasida hukmronlik qiladigan oila tashkil qiladi. Asosan, aynan shu erda insonning qarindoshlik muhitida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlar shakllanadi. Gender qurilishida aynan uy va oila tushunchalari ayolning ma'lum bir tajribasining manbai va ayni paytda uning bostirish va zulm markazidir. Gender munosabatlarida aloqa xususiy sohada ham shakllanadi, uning asosini boshqa ijtimoiy institutlar orasida hukmronlik qiladigan oila tashkil qiladi.

Asosan, aynan shu erda insonning qarindoshlik muhitida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlar shakllanadi. Gender qurilishida aynan uy va oila tushunchalari ayolning ma'lum bir tajribasining manbai va ayni paytda uning iqtidorini bostirish va zulm markazidir. Ayollarga asosan oilaviy rollar (ona ,uy bekasi, turmush o'rtoq) rollari, erkaklarga professional rollar belgilanadi . Bizga ma'lumki bola shaxsi oiladagi ota-onaning xatti -harakatlarini kuzatish va ularga taqlid qilish jarayoni orqali shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi.

Shu tariqa oiladagi noto'ri stereotiplarni kuzatib ulgayotgan farzandlarning ijtimoiy, emotsional va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Stereotiplar ota-onaning miyasi uchun ishni osonlashtiradi, ammo bolalarning rivojlanishini cheklaydi va ularga “shunday qilish kerak” degan shablonlarni yuklaydi. Masalan, “o'g'il bolalar yig'lamasligi kerak” yoki “qizlar itoatkor bo'lishi lozim” degan qarashlar bolalarning hissiyotlarini bostiradi, natijada o'zini baholashini pasaytiradi va noyob shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi, shaxsiylik va o'zini ifoda etish qobiliyatlari pasaydi , shablonlarga mos kelmaganda o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qoladi , o'zini hissiy va emotsional baholashda qiynaladi , ularni jamiyat kutgan cheklovlar (o'zinin ijtimoiy stereotiplarga majburlash, o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini bostirish)qamrab oladi.

Shu bois ota-onalar o'rtasida farzand tarbiyasiga oid ijtimoiy va psixologik bilimlarni oshirish, gender stereotiplarga asoslanmagan to'g'ri tarbiya usullarini qo'llash. Pedagogik amaliyotlarda va maktabgacha ta'lim , maktab ,oliy o'quv yurtlarida gender tenglikni rag'batlantiruvchi metodikalarni tadbiq etish.

Ilmiy tadqiqotlarda oila psixologiyasi, gender stereotiplarining farzandlarning psixologik rivojlanishiga, shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatda o'z o'rnini

topshiga ta'siri yanada chuquroq o'rganilishi jamiyatda gender stereotiplarga qarshi ong va bilimlarni oshirish imkonini beradi. Shaxs rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq tenglikka asoslangan tarbiya orqali bolalarda moslashuvchan fikrlash hamda ijtimoiy ongni shakllantirish mumkin.

Maqolamizga xulosa qiladigan bo'lsak, gender stereotiplar avvalom bor oilada shakllanib, bola tarbiyasiga, bolaning shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'rnatilgan ijtimoiy rollarga asoslangan notog'ri gender yindashuvlar farzandning individual salohiyating erkin namoton etishga, mustaqil fikrlashga hamda jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilish mumkin.

O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, oiladagi shaxslarning bola tarbiyasi uchun qo'llaniladigan yondashuvlari va nafatqat oila a'zolari, balki atrofidagi ijtimoiy muhitning gender rollarga bo'lgan munosabati o'z-o'zini anglash va o'zini baholash jarayonlarida muhim omil hisoblanadi. Bunday qarashlarga asoslangan notog'ri a'naviy tarbiya usullaridan batamom voz kechish, bolaning shaxs sifatida to'laqonli kamolga yetishishi hamda jamiyatimizning barqaror taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova, V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: (Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti nashriyoti), 2007 yil.
2. Abdullayeva, S.N. Gender psixologiya. Namangan: Namangan davlat universiteti nashriyoti, 2024 yil
3. Özdemir, Ş., & Noyan Yalman, I. (tahr.). Toplumsal cinsiyet eşitliği ve kalkınma. Istanbul: Kriter Yayınevi, 2022.
4. Е. П. Ильина «Пол и гендер» Издательский дом «Питер»», 2021 г
5. Gender stereotiplar va ularning jamiyatdagi o'rni. Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Umumiy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi D.M. Obidova. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(9), September.
6. https://Pmc.Ncbi.Nlm.Nih.Gov/Articles/Pmc7236655/?Utm_Source=Chatgpt.Com